



ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA SAMARADORLIK VA NATIJADORLIKNI OSHIRISH

Ziyoyev Jamshid

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0001-9991-5766

jnziyoyev@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalasi yoritilgan. Unda ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, texnologik jarayonlarni takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy qilish hamda mehnat unumdorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, taniqli iqtisodchi olimlarning iqtisodiy, ya'ni ishlab chiqarish resurslari haqidagi fikrlari tahlil qilinib, umumiy xulosa chiqarilgan. Bundan tashqari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llari va uni aniqlash usullari ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish korxonalari, ishlab chiqarish, innovatsiyalar, boshqaruv tizimi, raqobatbardoshlik, infratuzilma, moddiy ne'matlar, sifat omillari, asbob-uskunalar.

ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ И РЕЗУЛЬТАТИВНОСТИ ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

Зиёев Джамшид

Университет экономики и педагогики

Аннотация. В данной статье рассматривается проблема повышения экономической эффективности производственных предприятий. Анализируются пути рационального использования производственных ресурсов, совершенствования технологических процессов, внедрения цифровых технологий и повышения производительности труда. Анализируются взгляды видных учёных-экономистов на экономические, то есть производственные ресурсы, и делается общий вывод. Кроме того, рассматриваются пути повышения эффективности производства и методы её определения.

Ключевые слова: экономическая эффективность, производственные предприятия, производство, инновации, система управления, конкурентоспособность, инфраструктура, материальные блага, показатели качества, оборудование.

IMPROVING THE EFFICIENCY AND PERFORMANCE OF MANUFACTURING ENTERPRISES

Ziyoyev Jamshid

University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article discusses the issue of increasing economic efficiency in manufacturing enterprises. It analyzes ways to rationally use production resources, improve technological processes, introduce digital technologies, and increase labor productivity. It also analyzes the views of prominent economists on economic, that is, production resources, and draws a general conclusion. In addition, ways to increase production efficiency and methods for determining it are also considered.

Keywords: economic efficiency, manufacturing enterprises, production, innovation, management system, competitiveness, infrastructure, material goods, quality factors, equipment.

Kirish.

Globallashuv va erkin bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining samarali faoliyati mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Mahsulot tannarxini pasaytirish, resurslardan oqilona foydalanish, mehnat unumdorligini oshirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali korxonalar nafaqat ichki bozor talabini qondirishi, balki tashqi bozorlarda ham raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.

Ishlab chiqarish samaradorligi – bu murakkab va ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib, u ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida obyektiv iqtisodiy qonunlarning amal qilishini aks ettiradi. U jamiyat tomonidan erishilgan iqtisodiy natijani ifodalaydi va har qanday xo'jalik faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, "samara" va "iqtisodiy samara" tushunchalarini bir-biridan farqlash muhim ahamiyatga ega.

"Samara" umumiy, keng qamrovli tushuncha bo'lib, u har qanday faoliyatning natijasini bildiradi. Masalan, qishloq xo'jaligida o'g'itlardan foydalanish natijasida ekinlar hosildorligining ortishi yoki yem-xashakdan samarali foydalanish evaziga chorva mahsulдорligining oshishi texnik samaradorlikni aks ettiradi. Biroq bu natijalar, ya'ni hosildorlik yoki mahsulдорlikning ortishi, ushbu tadbirlarning iqtisodiy jihatdan qay darajada foydali bo'lganini ko'rsatmaydi.

Haqiqiy iqtisodiy samaradorlikni aniqlash uchun tadbir natijasida olingan foyda uni amalga oshirishga sarflangan resurslar – xususan, moliyaviy, moddiy-texnik va mehnat xarajatlari bilan taqqoslanadi. Bunda olingan iqtisodiy natijaning mazkur resurslarga nisbatan qanchalik yuqori bo'lishi iqtisodiy samaradorlik darajasini belgilaydi.

Shunday qilib, texnik samaradorlik ishlab chiqarishning tabiiy natijalarini, iqtisodiy samaradorlik esa bu natijalar evaziga erishilgan iqtisodiy foydani ifodalaydi. Ular bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, iqtisodiy tahlilda aynan iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosiy baholovchi omil sifatida xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari, foyda hajmi va raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shu bois ishlab chiqarish jarayonlarining har bir bosqichini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, ularni baholash mezonlari hamda samaradorlikni oshirishning amaliy yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan takliflar orqali korxona faoliyatini yanada takomillashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasi bo'yicha ko'plab iqtisodchilar, menejment va ishlab chiqarish sohasidagi mutaxassislar tomonidan nazariy va amaliy izlanishlar olib borilgan. Bu sohadagi tadqiqotlar, asosan, quyidagi yo'nalishlarda to'plangan: ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, mehnat unumdorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, xarajatlarni optimallashtirish hamda ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish.

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga nisbatan ishlab chiqarish samaradorligi masalasini ko'tarib, ilmiy iqtisodchi olimlarning ishlarida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligining turli jihatlari yoritilgan. Ishlab chiqarishning barcha usullarida xarajatlar va ijtimoiy mehnat natijalari o'rtasidagi munosabat sifatida namoyon bo'lgan bu kategoriya Abalkin (1986) ta'kidlaganidek, "har bir ma'lum shakllanishga xos bo'lgan boshqaruv sifatini" mantiqan ifodalaydi. Biroq har bir shakllanishda ishlab chiqarish samaradorligi hukmron ishlab chiqarish munosabatlari bilan belgilanadigan o'ziga xos ob'ektiv shaklda namoyon bo'ladi.

Iqtisodchi olimlar A. Smith va D. Ricardo asarlarida mehnat taqsimoti va samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlik asoslab berilgan bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonida resurslarni to'g'ri taqsimlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Marksistik nazariya doirasida esa Karl Marks ishlab chiqarish vositalarining rivojlanishini ijtimoiy mehnat samaradorligiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida baholaydi. Unga ko'ra, ishlab chiqarish vositalarining takomillashuvi nafaqat mahsulot hajmini oshiradi, balki mehnat quvvatining ortishiga ham olib keladi. Marks (1978) bu haqda shunday deydi: "Ishlab chiqarish vositalari taraqqiyoti mehnat unumdorligini belgilovchi asosiy omildir".

O'zbekistonlik tadqiqotchilar tomonidan ham so'nggi yillarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Qurbonov, Ergashev, Raximov (2020) kabi olimlarning ilmiy ishlarida korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish, mahalliy xomashyodan samarali foydalanish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishlarida muhim nazariy-amaliy asoslar bayon etilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining tegishli qaror va farmonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning huquqiy-institutsional bazasini shakllantirib bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish ko'p omilli va kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayon bo'lib, u nafaqat texnologik yangilanish, balki samarali boshqaruv, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va innovatsion yechimlar asosida amalga oshiriladi. Bu boradagi ilg'or adabiy manbalarni o'rganish maqola mazmunini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ishlab chiqarish korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llarini o'rganish uchun nazariy va amaliy tahlil metodlari qo'llanildi.

- Ishlab chiqarish samaradorligi tushunchasi, uni aniqlovchi omillar, baholash mezonlari hamda ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalar o'rganildi. Bunda iqtisodiy nazariya, menejment, innovatsion rivojlanish va ishlab chiqarish tizimlari bo'yicha mavjud adabiyotlar, ilmiy maqolalar va qonunchilik hujjatlari tahlil qilindi.

- Tadqiqot uchun tahlil ob'ekti sifatida tanlangan korxonaga oid statistik ma'lumotlar, moliyaviy ko'rsatkichlar, ishlab chiqarish hajmi, mehnat unumdorligi, resurslardan foydalanish darajasi, mahsulot tannarxi va foydalilik ko'rsatkichlari asosiy axborot manbai sifatida olindi. Ma'lumotlar korxonaning yillik hisobotlari, davlat statistikasi va ochiq iqtisodiy sharhlar asosida to'plandi.

-Tahlil usullari:

1. Taqdim etilgan statistik ma'lumotlar asosida dinamik va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanildi.

2. SWOT-tahlil orqali korxonaning kuchli va zaif jihatlari, imkoniyatlar va tahdidlar baholandi.

3. Iqtisodiy-analitik tahlil asosida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganildi.

4. Chora-tadbirlar samaradorligini prognozlash uchun solishtirma tahlil va grafik uslublar qo'llanildi.

- Tahlil natijalari asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bu tavsiyalar resurslardan foydalanishni optimallashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, mehnat jarayonini tashkil etish va boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish - zamonaviy sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Korxonada resurslardan foydalanish darajasi, texnologik jarayonlarning optimalligi, mehnat unumdorligi va boshqaruv tizimining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqarish natijalariga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot doirasida o'rganilgan ma'lumotlar asosida ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar tahlil qilindi hamda amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Ishlab chiqarish jarayonida haqiqatan ham ishlatiladigan barcha resurslar ishlab chiqarish omillari deb ataladi. Iqtisodiyotning qanday tizimda va shaklda bo'lishidan qat'i nazar, ishlab chiqarishda uch asosiy omil mavjud: ishchi kuchi, mehnat qurollari va mehnat predmetlari.

Ishchi kuchi - bu insonning mehnat qilishga qodir bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlari yig'indisidir. Ya'ni ishchi kuchi - mehnatga qobiliyatli odamlarning qobiliyatidir, shaxsning o'zi yoki uning bajaradigan mehnati emas. Amaliyotda mehnat resurslari deb mehnatga qobiliyatli yoshdagi, iqtisodiyotda faol ishlayotgan odamlar tushuniladi. Odatda, mehnatga layoqatli yosh chegarasi 16 yoshdan boshlanib, erkaklarda 59 yoshgacha, ayollarda esa 54 yoshgacha bo'ladi.

Yoshroq bo'lganlar, masalan, ishlayotgan o'smirlar, va katta yoshdagilar, masalan, ishlayotgan pensionerlar ba'zan mehnat resurslaridan chiqariladi yoki kiritilmaydi. Shunday qilib, "imtiyozli pensionerlar", ya'ni avvalgi kasblarida yoki boshqa ishlarda faoliyatini davom ettirayotganlar mehnat resurslari tarkibida qoladi, ammo ishlamayotgan pensionerlar mehnat resurslaridan chiqariladi.

Mehnat qurollari - bu insonning tabiatga yoki mehnat predmetlariga ta'sir qilishida foydalanadigan vositalar (masalan, mashinalar, stanoklar, traktorlar, uskunalar va boshqalar) (Гулямов, 1986).

Mehnat predmetlari esa bevosita mehnat ta'sir qiladigan narsalardir - masalan, yer, suv, xom ashyo va boshqa turli materiallar. Mehnat predmetlari tabiatda tayyor holda uchrashi yoki ilgari ishlab chiqarilgan mahsulot, ya'ni xom ashyo bo'lishi mumkin.

Mehnat qurollari va mehnat predmetlari birgalikda ishlab chiqarish vositalari deb ataladi. Bu tushuncha mehnat jarayonining tabiati bilan bog'liq bo'lib, ishlab chiqarish vositalari har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimda va insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida mavjud bo'ladi.

Mehnat unumdorligi tahlili shuni ko'rsatdiki, bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot ishlab chiqarish hajmi yil davomida nisbatan o'sgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich hali ham sektor bo'yicha o'rtacha darajadan past. Bu esa mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ichki muammolar mavjudligini bildiradi. Mehnat unumdorligining past bo'lishiga quyidagi omillar ta'sir qilmoqda:

- texnologik jarayonlarning eskirganligi;
- kasbiy tayyorgarlikning yetarli emasligi;
- ishchilarni rag'batlantirish tizimining sustligi.

“Samaradorlik” tushunchasining rivojlanish tarixiga nazar solganda, yaqin o'tmishda ishlab chiqarishning umumiy samarasini yagona ijtimoiy-iqtisodiy kompleks sifatida ko'rib chiqish taklif qilingan.

So'nggi paytlarda ishlab chiqarish samaradorligi odatda uch asosiy turga bo'linadi: ishlab chiqarish-texnologik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik.

Umuman olganda, ishlab chiqarish samaradorligi va uni oshirish masalasi iqtisodiyot nazariyasining eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, hozirgi davrda bu masala yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki ishlab chiqarish samaradorligini oshirmasdan mamlakatimiz oldidagi eng muhim vazifa — mustaqil iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirish imkonsizdir.

Samaradorlik iqtisodiy mazmuni sifatida ishlab chiqarishning yakuniy natijasi bilan unga sarflangan resurslar, mablag'lar yoki xarajatlar o'rtasidagi nisbat tushuniladi. Ammo turli ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar sharoitida va jamiyat maqsadidan kelib chiqib, samaradorlikning mohiyati o'zgaradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishning asosiy maqsadi foyda olish bo'lib, har bir iqtisodiy sub'yekt ko'proq foyda olishga intiladi. Shu sababli ishlab chiqarish samaradorligi olingan foydaning (P) ishlab chiqarishga sarflangan resurs xarajatlariga (IR) nisbati orqali aniqlanadi:

$$P' = \frac{P}{IR} \times 100\%$$

bu yerda:

- P' — foyda normasi (rentabellik);
- IR — iqtisodiy resurs xarajatlari.

Iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlikning asosiy mezonini haqida turli fikrlar mavjud. Ba'zi olimlar uni foyda bilan, boshqalar yalpi milliy mahsulot, sof mahsulot, milliy daromad yoki qo'shimcha mahsulot ko'rsatkichlari bilan o'lchaydi. Ammo ko'pchilik ekspertlar bozor iqtisodiyoti sharoitida samaradorlikning asosiy mezonini sifatida foydaning xarajatlarga nisbati — ya'ni rentabellikni qabul qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, ishlab chiqarish samaradorligi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uni faqat bir asosiy ko'rsatkich bilan to'liq ifodalash mumkin emas. Shu sababdan ishlab chiqarish samaradorligini baholashda, undan qatnashgan barcha omillarning unumdorligi va samarali foydalanish darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim (Soliyev va boshq., 2022).

Ishlab chiqarish samaradorligini aniqlashda turli ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ulardan biri - mehnat unumdorligi. Mehnat unumdorligi deganda ishchi kuchining vaqt birligi davomida qancha mahsulot yaratishi tushuniladi. Bu ko'rsatkich mahsulot (iste'mol qiymati) va unga sarflangan mehnat miqdori orasidagi nisbat orqali aniqlanadi. Mehnat miqdori esa ishlangan vaqt bilan, masalan, kishi kuni yoki kishi soati bilan o'lchanadi. Agar mehnat unumdorligini MU , mahsulotni M , va sarflangan vaqtni V bilan belgilasak, mehnat unumdorligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$MU = \frac{M}{V}$$

Ya'ni, mehnat unumdorligi sarflangan har bir jonli mehnat birligiga (kishi kuni, kishi soati) to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, samaradorlikni o'lchashda kapital unumdorligi ko'rsatkichidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarishda qatnashgan kapitalning har bir birligiga to'g'ri keladigan mahsulot, daromad yoki foyda miqdorini anglatadi (Taylor, 1991). Agar kapital

unumdorligini KU, kapital miqdorini K, mahsulotni M, yalpi daromadni Y, foydani P bilan belgilasak, quyidagi formulalar hosil bo'ladi:

$$KU = \frac{M}{K}; \quad KU = \frac{Y}{K}; \quad KU = \frac{P}{K}$$

Shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini baholashda mahsulotning mehnat sig'imi, material sig'imi va energiya sig'imi kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkichlar mahsulotning har bir birligini yaratish uchun ketgan yoki zarur bo'lgan mehnat, moddiy resurslar va energiya miqdorini ifodalaydi. Ularning har biri ishlab chiqarishda qatnashgan omillar samaradorligini ko'rsatadi va ular o'zaro chambarchas bog'liq hamda bir-birini to'ldiradi (Raximov, 2021).

Samaradorlikni oshirish uchun esa unga ta'sir etuvchi omillarni to'liq bilish va ulardan samarali foydalanish muhimdir.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga bir qancha muhim omillar ta'sir qiladi:

-Ilmiy-texnik taraqqiyotning tezlashishi va uning natijalarini ishlab chiqarishda tezda qo'llash;

-Ishlab chiqarishni ratsional joylashtirish, ixtisoslashtirish va korxonalarining o'zaro hamkorligini kuchaytirish;

-Iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini va tashkilot bo'g'inlarini takomillashtirish;

-Ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va ularning ish faoliyatini oshirish;

-Tabiiy, moddiy va mehnat resurslaridan oqilona, tejab-tergab foydalanish, yangi, arzon va sifatli xomashyo va energiya turlarini, shuningdek, ekinlarning yangi hosildor navlari hamda chorva mollarining mahsuldor zotlarini ishlab chiqarishga joriy qilish;

-Kishilarning bilim va malakasini oshirish, yetuk ishchi va mutaxassislar tayyorlash.

Ushbu omillar orasida ayniqsa fan-texnika taraqqiyoti bugungi kunda O'zbekiston uchun katta ahamiyatga ega. Fan-texnika taraqqiyotining ikki shakli mavjud: evolyusion va revolyusion. Evolyusion shaklda rivojlanish deganda, mavjud texnologiya asosida mashina va uskunalarni qisman yangilash va takomillashtirish tushuniladi.

Korxonaning ichki va tashqi muhitini baholash maqsadida o'tkaziladigan SWOT tahlil natijalariga ko'ra quyidagi xulosalar chiqariladi:

-Kuchli jihatlar (S): mahalliy bozorni yaxshi bilish, tajribali kadrlar, hududiy logistik qulayliklar;

-Zaif jihatlar (W): texnologik bazaning eskirganligi, samarali boshqaruv tizimining yetishmasligi, kam investitsiya jalb qilinishi;

-Imkoniyatlar (O): eksport imkoniyatlarini kengaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish;

-Tahdidlar (T): chetdan keladigan raqobat kuchayishi, xomashyo narxlarining o'zgaruvchanligi.

SWOT tahlil asosida samaradorlikni oshirish bo'yicha aniq yo'nalishlar aniqlab olindi. Tahlil natijalariga asoslanib quyidagi xulosalar chiqarildi:

-Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligini oshirish orqali mahsulot hajmini kam xarajat evaziga oshirish mumkin;

-Mehnat unumdorligini oshirish uchun ichki motivatsiya tizimini kuchaytirish, xodimlar malakasini oshirish zarur;

-Texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirish samaradorlikning asosiy manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi;

-Resurslar (xomashyo, energiya, ishchi kuchi) dan foydalanishni optimallashtirish korxona foydaliligini oshiradi;

-Samarali boshqaruv tizimini joriy etish orqali qarorlar qabul qilish jarayoni soddalashadi va tezlashadi.

Xulosa va takliflar.

Ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik, iqtisodiy va boshqaruv omillari samaradorlikka bevosita ta'sir etishi amaliy misollar orqali isbotlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarish samaradorligi ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, ularni kompleks tarzda boshqarish korxona raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Shunga asosan quyidagi xulosalarga kelindi:

- Ko'pgina ishlab chiqarish korxonalarida texnologik jarayonlar eskirgan bo'lib, bu mahsulot sifatiga va tannarxga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

- Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari yetarli darajada yuqori emas, bu esa inson resurslaridan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatadi.

- Boshqaruv tizimining takomillashmaganligi va innovatsion yondashuvlarning yetishmasligi samaradorlikni cheklab qo'yimoqda.

- Energiya va xomashyo sarfini kamaytirish imkoniyatlari mavjud bo'lishiga qaramay, mavjud quvvatlar to'liq ishga solinmagan.

Tahlil natijalariga asoslangan holda quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Texnologik yangilanish va avtomatlashtirish:

- Eskirgan uskunalarni zamonaviy, energiya tejamkor texnologiyalar bilan almashtirish;

- Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etish.

2. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish:

- Ishchilar malakasini oshirish bo'yicha doimiy o'quv-treninglar tashkil etish;

- Mehnatni rag'batlantirish tizimini qayta ko'rib chiqish hamda natijaga yo'naltirilgan baholash tizimini joriy etish

3. Resurslardan foydalanishni optimallashtirish:

- Ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilib, ortiqcha energiya va xomashyo sarfini qisqartirish;

- Qayta ishlash va chiqindisiz texnologiyalarni qo'llash orqali resurs tejamkorligini ta'minlash (Бугуцкий, 1984).

4. Samarali boshqaruv tizimini joriy etish:

- Korxona ichki boshqaruv strukturasini soddalashtirish, funksional vazifalarni aniq belgilash;

- Strategik rejalashtirish va monitoring tizimlarini ishlab chiqish.

5. Bozor va mahsulot strategiyasini rivojlantirish:

- Yangi bozor segmentlarini o'rganish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish;

- Mahsulot assortimentini kengaytirish va iste'molchilar talabiga moslashtirish.

6. Innovatsion faoliyatni rag'batlantirish:

- Ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish;

- Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun investitsiyalar jalb qilish.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Qurbonov A., Ergashev B., Raximov Z. (2020) *Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari: nazariy va amaliy jihatlar*. - Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti. -184 s.

Raximov Z.R. (2021) *Korxona iqtisodiyoti*. - T.: "Fan va texnologiya".

Soliyev A. va boshq. (2022) *Ishlab chiqarish menejmenti*. - T.: "Iqtisod-moliya".

Taylor F. (1991) *Ilmiy boshqaruv asoslari*. - Moskva: Ekonomika.

Абалкин Л.И. (1986) *Экономическая теория социализма*. -М.: Политиздат.

Бугуцкий А.А. (1984) *Эффективность использования ресурсов сельскохозяйственного производства*. - М.: Колос, стр. 169-225.

Гулямов С.С. (1986) *Проблемы моделирования развития региональных аграрно-промышленных комплексов*. Автореф. дисс. на соискание учен.степ. доктора экономических наук. - Москва.

Маркс К. (1978) *Капитал. Том I*. - М.: Политиздат.